

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORLARI

Hilola Mamatqobilova

Guliston davlat universiteti

“Filalogiya fakulteti”(o‘zbek tili) yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlarimiz darsdan so‘ng vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun zarur shart-sharoitlar va ularni turli kasb-hunarlariga o‘rgatish jamiyatimizni yuksaltirishining asosiy manbai hisoblanadi. Shiddat bilan rivojlanib boryotgan bir vaqtda yosh avlodning dunyoqarashini o‘stirib, dam olish vaqtlarida unumli ishlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz yoshlar hayotida san‘at, adabiyot, sport muhim o‘rin tutadi-deya o‘z nutuqlarida aytib o‘tadilar.*

Kalit so‘zlar: *Yoshlar, ilm-fan, o‘qish, foydali mashg‘ulotlar, bo‘sh vaqt, kelajak avlodlari, kitob o‘qish, talaba, besh tashabbus,*

KIRISH

Hozirgi vaqtda tengdoshlarimizning o‘qish va ishdan bo‘sh paytlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida ko‘plab intellektual o‘yinlar, munozara, zakovat shashka shaxmat o‘yinlari o‘tkazib kelinmoqda. Zamonviy hayot sharoitlarda yoshlarimizning ishdan bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalasi juda muhim hisoblanib kelinmoqda. Zamon talabiga binoan do‘stlarimiz dam olish vaqtlarini samarali o‘tkazish maqsadida turli xil fikrni charxlovchi mashg‘ulotlar bilan, nafaqat shaxsiy rivojlanishiga va kelajak hayotlariga balki, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga har tomomlama yordam beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirzayoyev ham o‘z nutqlarida yoshlarga qarata “Sizlarning shijoat va intilishlaringizni ko‘rib, yonib turgan ko‘zlaringizga boqib, o‘zinga bitmas-tuganmas kuch olaman”, - deya qayta-qayta takidlaydilar. Albatta hozirda yoshlar o‘rtasida bir qancha musobaqalar tashkil etilgan. Bu borada mahalladgi 6 milliondan ziyod o‘g‘il-qizlarimiz, ayniqsa uyushmagan yoshlarning iste’dodini ro‘yabga chiqarish bo‘yicha besh olimpiadasi yo‘lga qo‘yildi. Yurtimiz o‘sib boryotgan ayni vaqtda shunday vaziyatlardan foydalangan holda do‘stlarimiz o‘zlarining dunyoqarashlarini, erkin fikrlay olishlarini, o‘zlarining so‘zlarini qo‘rqmasdan gapira olishlarini va nutqi ravon bo‘lishi uchun ham yoshlarimiz bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanish muhimdir. Chunki, dono xalqimiz “Vaqting ketdi- naqding ketdi” degan naql bor. Do‘stlarimiz imkon topilgan vaqtda kitob mutolaa qilmog‘ lozim, turli tillarni o‘rganmog‘i, hunar o‘rganish, turli sport o‘yinlariga qiziqtirish bolalarni kichkinaligidan shu narsalarga o‘rgatish eng foydali



ishlardan biri hisoblanadi. Ota-bobolarimiz “Bir yigitga qirq hunar oz deb” bekorga aytshmagan. Hozirgi kunda yoshlarimiz o‘z iqtidorlari bilan ko‘plab yoshlarga tashkil etilgan musobaqalarda ishtirok etgan holda qimmatbaho sovg‘alar egalariga aylanishmoqda. Har bir yoshlarga berilayotgan imkoniyatlaran teng foydalanish huquqiga ega hisoblanadi.

Prezidentimiz aytganlaridek, “...yoshlar bolalik chog‘laridan kitobga mehr uyg‘otish, mustaqil fikr va keng hayotga qarashlarini shakllantirish, ularning hayotgan bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otishga mustahkam zamin bo‘ladi. Ayni vaqti bo‘lganidek, hozirgi avlodlarni hayotga, kitobga, san‘atga bo‘lgan qiziqishlarni yanada oshirish amallarimizga bog‘liq. Xalqimiz orasida naql borki, “Yoshlikdan olingan bilim toshga o‘yib yozilgan naqsh kabidir. Misol uchun birgina novdani yerga ekib uni vaqtida parvarish qilmasa, suv quymasa, atrofidagi begona o‘tlarni tozalamasa, ekilgan novda nozik va qiyshiq bo‘lib o‘sib boraveradi va biz kutgan natijalarni bermaydi. Bu yo‘lda har bir yosh avlodlarga o‘rnak bo‘lib o‘zimizga o‘rnak qilib olmog‘imiz lozimdir. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e‘tiborni kuchaytirib yosh avlodni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish ularda axboraot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin qizlar bandligini ta‘minlash masalalariga bag‘ishlangan videosektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Bu yig‘ilishda ularning ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratish masalalari nazarda tutildi. Qolaversa, yoshlar o‘rtasida turli xil ko‘rgazmalar o‘tkazildi. Misol uchun bir qancha ko‘rgazmalar “Yosh rassomlar tanlovi”, “Manzara ko‘rgazmasi”, “Rangtasvir bo‘yicha respublika ko‘rgazmasi” “Yosh rassomlar ko‘rgazmasi”, “Iste‘dod” “Sog‘liqni saqlash –ko‘rgazmasi, shu o‘rinda aytish joizki, 1995-yil tashkil etilgan “sog‘liqni saqlash” Toshkent xalqaro ko‘rgazmasi zamonaviy O‘zbekistondagi ilk ko‘rgazma tadbirlaridan biridir. TIHE Umumjohon ko‘rgazma sanoati assotsiatsiyasi (UFI) tomonidan tasdiqlangan tadbir maqomiga ega bo‘lgan O‘zbekistondagi yagona tibbiy ko‘rgazmalardan biridir bu ko‘rgazmalar bo‘yicha bir qator yosh ijodkorlarimiz 2023-yil 2-yanvar kuni O‘zbekiston Badiiy akademiyasining Markaziy ko‘rgazmalari bo‘lib o‘tdi. Bundan tashqari yosh rassomlarning ijodiy faoliyatlarini rag‘batlantirish maqsadida tashkil etilgan ko‘rgazmada 12 nafar o‘quvchi va 50 ga yaqin ijodiy ishlari namoyish etildi. yoshlarimiz tasvirlangan manzaralarida yurtimizning go‘zal va milliy urf-odatlarimiz tasvirlagan. Bunday imkoniyatlardan foydalangan holda prizendimiz yoshlar o‘rtasida katta bir tanlovni e‘lon qildi. ya’ni “Yosh kitobxon” tanlovi prizendimiz qarori bilan “Buyuk allomalar adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida



yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risi”dagi farmoni 2018-yil 15-may kuni PQ-3721 qarori. Bu qarorni qabul qilishdan maqsad yoshlar qanchalik kuchli bilimga chanqoq, ekanligi va zukkorligi, topqirligi nazarda tutilgan. Bu yosh kitobxonlar tanlovida ishtirok etgan holda bir qancha yoshlarimiz o'z bilimlariga ishongan holda bu tanlovlarda qatnashgan holda qimmat sovg'alar bilan taqdirlandi va 1-o'rin sohiblariga prizendimiz tomonidan spark avtomobili sovg'a etilishi ko'plab yoshlarning mutolaaga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirdi qolgan yoshlarimizga esa, bilimlarini mustahkamlash uchun ko'p kitoblar sovg'a tariqasida topshirildi. Kuni kecha “kitob olami” majmuasi”Yoshlar kutubxonasi” loyhasi dirasida chop etilgan yangi kitoblarning taqdimoti ham bo'lib o'tdi. 10 ming nusxadan 12 nomdagi jahon va o'zbek adabiyotining durdona asarlari yig'ilgan kitobxonlarga bir olamquvonch ulashdi. Bugun hamma porloq kelajak yaratish istagi bilan harakatda.Yurtimizda keng mutolaa maydonini yaratishga qaratilgan loyhalar, yaratilayotgan imkoniyatlar samarasidan kitobxonlarimiz safi millionlarga yetdi.”Yosh kitobxon”, “Kitobxon o'qituvchi”,”Eng yaxshi kitobxon oilasi” kabi tanlovlarning tashkil etilishi, undagi g'oliblarning barchaga namuna bo'lgan holda yoshlarni o'z ortidan ergashtira olishi buyuk kelajak sari tashlayotgan istiqbolli qadamimizdir. Shuningdek, 2023-yil 26-aprelda “Yoshlarning bandligiga ko'maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonida shu aytib o'tganlar bu e'londan maqsadi mamlakatimizdagi yoshlarimiz mustaqil hayotga qadam qo'yishlari,o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyish etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish va taminlashdir. Qanchadan qancha yaratilayotgani imkoniyatlar faqat yoshlarimiz uchun emas, balki yoshi ulug' inonlar uchun hamdir. Mamlakatimiz gullab yashnayotgan bir mahalda qiziqishlari ortib borayotgan Yoshi ulug' bobolarimiz ham bugungi kunda yoshlarga qiziqan holda kitoblarni mutolaa qilishmoqda. Bir donishmand “To beshikdan qabrgacha bilim izla” - deya aytganlar” ya'ni har bir yosh-u qari qiz-u o'g'il teng huquqa egadir shunday ekan bilim izlashdan to'xtamang.

Xususan, yoshlarimizga keng berilgan imkoniyatlar natijasida shuni ma'lum qiladiki, Oliy ta'lim muassasalari salkam 3 karraga ko'payib, qamrov darajasi 9%dan 38% ga yetgani va zamonaviy ilm va kasb sohalarini egalashda yoshlar uchun yangi imkoniyatlar bo'ldi. Oxirgi 3 yilning o'zida 250 ming nafar yoshga 6 trillion so'mdan ziyod imtiyozli kriditlar ajratildi. Bunday imkoniyatlar hozirda yoshlarimizga berilib kelmoqda. Mamlakatimiz bo'yicha 210 ta “Yoshlar sanoati va tadbirkorlik zonolari” tashkil etilib 4 trillion so'mlik 2.5 mingta loyha amalga oshirildi. Natijada, yosh tadbirkorlar soni 2 karra ko'payib 200 mingdan oshdi va yoshlarga 100 dan ortiq imkoniyatlar yaratildi.



Bunday imkoniyatlardan so‘ng “Yoshlar daftari”, “Temir daftar” va shunga o‘xshash ko‘plab zimlar yo‘lga qo‘yilib, so‘nggi ikki yilda 798 ming nafarga yaqin yoshlarga qarib 1 trillion so‘mlik va “Yoshlar daftari” orqali o‘tgan yili 180 ming nafar yoshlarga 345 milliard so‘mlik yordamlar ko‘rsatildi. Qolaversa, turli fan sohalarida ko‘lab yutuqlarga ega bo‘lganimiz malum. Misol uchun o‘tgam yili xalqaro fan olimpiadalarda 7 ta oltin 36 ta kumush va 38 ta bronza medalini qo‘lga kiritdilar . Yoshlarimiz bu yili ham xalqaro muSobaqalarda muvaffiqiyatli ishtirok erib, 24 ta oltin 119 ta kumush 110 ta bronza medal sohibalariga aylandi. Bu kabi imkoniyatlarni do‘tlarimiz qo‘ldan boy bermagan.

XULOSA

Hozirgi kunda yoshlar o‘zlari qizziqan soha bo‘yicha ish faoliyatlarini olib bormoqda. Shu bois ham yoshlar o‘z faoliyatini jalb qilish maqsadida turli mashg‘ulotlar va qiziqarli o‘yinlarni olib bormoqda va ularni qo‘llab-quvvatlash murabbiy va o‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biridir. Yoshlarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali yoshlar ijodiy fikrlashga, o‘z ustida ishlashga, yangi ko‘nikmalar egallashga va jamoada birga ishlash malakalarini ham o‘rganadilar. Har bir tengdoshlarimiz bilim izlab, yaratilgan sharoitlarda unumli foydalangan holda kelajak sari yurmog‘ darkor. Vaqt o‘tib boraveradi, insonlar ham o‘zgaraveradi, ammo, olayotgan bilimlarimiz o‘zgarmaydi.

FAYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 15-maydagi PF-3721 qaroriga asosan “Buyuk allomlar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ob qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni ko‘zda tutilgan.(<https://lex.uz>)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Yoshlarning bandligiga ko‘maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta‘minlashga oid qo‘shimchalar chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-61-sonli qarori ijrosini ta‘minlash.(<https://lex.uz>)
3. O‘zbekisto Respublikasi Prezidentining 2016-yil 14-sentabrdagi qonuni “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi O‘RQ-406-soni qarori.(<https://lex.uz>)
4. “Rangtasvir rassom ko‘rgazmasi” Mahmud Amedov
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi “yoshlarni har tomomlana qollab-quvvatlash va ularning ijtimoy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-6260-soni farmoni.(<https://old.adolat.uz>)
6. 30-yubiley Toshkent Xalqaro “sog‘liqni saqlash-TIHE2026”ko‘rgazmasi(<https://tihe.uz>)

